

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QIMOR BIZNESINI TASHKIL ETISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI.

**Fatidinova Dildora Muratjonovna**  
**Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

**Annotasiya:** Ushbu maqola turli hil onlayn qimor o‘yinlarida ishtirok etib totalizatorlarda katta mablag‘ni yutqazib qo‘yganlar duch kelayotgan moliyaviy qiyinchiliklar sabab ular tomonidan sodir etilayotgan huquq buzarlilar soni ortib borayotganligi haqida.

**Tayanch so‘zlar va tushunchalar:** Onlayn qimor o‘yinlari, totalizator o‘yinlar, bukmekerlik, totalizator o‘yinlar, ommaviy kommunikatsiya.

Keyingi paytlarda internet orqali pul tikiladigan turli hil onlayn qimor o‘yinlarda ishtirok etish oqibatida katta mablag‘larni, davlat byudjetidagi pullarni yutqazib qo‘yib, xonavayron bo‘lgan, hatto, yutqazish natijasida depressiya holatiga tushib qolib, o‘z joniga qasd qilganlar soni ko‘payib borayotganligi haqidagi xabarlar ko‘paya boshladi.

Onlayn qimor o‘yinlari ayrim toifadagi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday o‘yinlar natijasida nafaqat moliyaviy ta’sirga, balki qaramlikni keltirib chiqaruvchi hissiy ta’sirga ham tushib qolish holatlari ko‘p uchramoqda. Ba’zi mamlakatlarda qimor o‘yinlariga qaramlik o‘zining zararli oqibatlari tufayli sog‘liqni saqlash sohasining muhim muammolaridan biriga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi bir necha yil ichida global miqyosda totalizatorlarda o‘ynash darajasi oshgan. AQSHda so‘nggi yillarda 6 milliondan ortiq odam qimor o‘yinlari tufayli sog‘ligini yo‘qotib, davolanishga muhtojligini ma’lum qilgan.

Milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga, shuningdek, diniy qarashlarimizga yot bo‘lgan qimor o‘yinlarini noqonuniy ravishda tashkil etish holatlari, ayniqsa, onlayn tarzda ommalashib, nafaqat o‘smir va yoshlarni balki katta yoshlik insonlarni ham o‘z domiga tortayotgani achinarli holatlardan biridir.

Bundan ham yomoni, totalizatorlarda katta mablag‘ni yutqazib qo‘yganlar duch kelayotgan moliyaviy qiyinchiliklar sabab ular tomonidan sodir etilayotgan huquq buzarlilar soni ortib bormoqda.

Loxvitskiy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «bir necha soat ichida boyib ketish umidi, asosan, o‘ziga ishonchi yetarli bo‘lmagan odamlarni o‘ziga tortadi; boylik yaratishning halol yo‘li bo‘lgan mehnat hayotidan voz kechiladi; minglab odamlar bankrot bo‘ladi, biri boyib ketadi, lekin hatto o‘sha odamning tasodifan qo‘lga kiritgan boyligi ham odatda unga hech qanday foyda keltirmaydi. Hatto mulk tamoyili ham qimor o‘yinlari bilan larzaga keladi: boylik tasodif natijasi bo‘lishi bilanoq, u barcha ma’naviy ahamiyatini yo‘qotadi» [1]

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizda totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanadi. Bu borada mutasaddi idoralar tomonidan noqonuniy xizmatlar reklamasi aniqlanib, ularga chek qo‘yilmoqda.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 30 dan ortiq totalizator va bukmekerlik reklamasini noqonuniy ravishda yurituvchi saytlarga kirish cheklab qo‘yildi, totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanib, ularga chek qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida “onlayn” qimor bilan bog‘liq jinoyatlar 2019 yilda 55 ta, 2020 yilda 86 ta, 2021 yilda 103 ta, 2022 yilning 6 oyida 90 tani tashkil etgan [2].

2021-yilda chiqqan boshqa bir xabarda ko‘ra Farg‘ona davlat universitetining 30 yoshli o‘qituvchisi 57 million so‘mni onlayn qimorda yutqazib qo‘ygach o‘z joniga qasd qilgan, Farg‘onadagi boshqa bir holatga ko‘ra esa Olimpiya kolleji bosh hisobchisi 4,3 milliard so‘mni qimor o‘ynash uchun ishlatgan.

Binobarin, mamlakatimizda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish hamda o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasida jinoyat sifatida belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, bunday o‘yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan tatalizator o‘yinlarda ishtirok etishga jalb qilish O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 191-moddasida ma’muriy huquqbuzarlik sifatida e’tirof etilgan.

Jumladan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish, shu jumladan, ana shunday o‘yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud to‘rt oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko‘paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi”.

Qonunga xilof ravishda qimor o‘yinlarida qatnashish hamda kapital harakati operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi saytlar O‘zbekiston qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborot mavjud bo‘lgan internet tarmog‘i reyestriga kiritiladi. Bu reyestriga kiritish uchun qimor saytlari ro‘yxatini Istiqbolli loyihalar milliy agentligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga taqdim etadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va reklama qilish ma’muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 16 avgustdagi 176 sonli qaroriga asosan, 2007 yil 1 sentabrdan boshlab O‘zbekiston hududida qimor o‘yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni (shu jumladan totalizatorlar) tashkil etish va o‘tkazish taqiqlangan [3].

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 191-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston hududida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish, o‘tkazish uchun xizmat ko‘rsatish yoki uni tarqatish – bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi [4].

Bundan tashqari, “Reklama to‘g‘risida”gi qonunning 46-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston hududida qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, shuningdek, telekommunikatsiya tarmoqlari va internetdan foydalangan holda tashkil etiladigan qimor o‘yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar reklamasi taqiqlangan. 2022 yil boshidan buyon O‘zbekistonda bukmekerlik xizmatlarini targ‘ib qiluvchi 27 ta sayt bloklangani xabar qilingandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan O‘zbekistonda onlayn qimor o‘yinlari ishtirokchilarining kartalaridan transchegaraviy o‘tkazmalar taqiqlanadi. 2022 yil 30 noyabr kuni “Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste’molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli

texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to’g’risida”gi prezident qarori imzolandi.

Qonunchilik palatasi deputati Rasul Kusherbayevning ma’lum qilishicha, deputatlar korib chiqayotgan qonun loyihasiga ko’ra, Jinoyat kodeksida internetda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o’yinlar yuzasidan qator o’zgarishlar ko’zda tutilmoqda. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish, o’tkazish yoki ularda ishtirok etish uchun telekommunikatsiya tarmoqlari yoxud Internet jahon axborot tarmog’i orqali xizmatlar ko’rsatish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko’paytirish, uni tarqatish BHM ning 50 baravaridan 70 besh baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Aslida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarning qonunga xilof ravishda tashkil etilishi va o’tkazilishi fuqarolarga nafaqat ruhiy ta’sir o’tkazadi, balki moliyaviy qaramlikka duchor etib, oilaviy nizolarga ham sabab bo’ladi. Shuningdek, ushbu faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko’payishiga, soliqlar va boshqa to’lovlarni to’lashdan bo’yin tovlanishiga yo’l ochadi hamda shu orqali mamlakatimizning iqtisodiy ravnaqiga putur yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda fuqarolarning ogohligini oshirish, davlatning bu boradagi nazoratini kuchaytirish hamda ota-onalar tomonidan o’z farzandlarining bo’sh vaqtlaridan unumli foydalanishi ustidan muntazam nazorat olib borilishi yuqoridagi kabi salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Onlayn qimor o’yinlariga tobelikdan davolanish uchun tavsiya qilinadigan asosiy usul bu kognitiv xulq-atvor terapiyasidir ya’ni mutaxassis bilan muddatli psixologik suhbatlar olib borish va proektiv metodlardir. Biroq tuzalish ehtimoli juda kam, buning ustiga tadqiqotchilar fikriga ko’ra qimorbozlarning 80 foizi hech qachon davolanishga murojat qilmaydi, shuningdek qimor ortidan kelgan moliyaviy nochorlik ham bunga yo’l bermasligi mumkin. qimor o’yinlarining shakl va usullarining evolyutsion rivojlanishi tarixning ma’lum bir davridagi insoniyat taraqqiyoti darajasiga to’g’ri kelgan degan xulosaga keldik. Dunyo davlatlari har doim qimor o’yinlari sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurati bilan duch keladilar. O’zbekiston Respublikasi qonunlarida ham onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarning qonunga xilof ravishda tashkil etilishi va o’tkazilishga qarshi qushimcha chora tadbirlar ishlab chiqilishi lozim deb o’ylaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Loxvitskiy A. Rossiya jinoyat huquqi kursi. - Sankt-Peterburg: Schreyer nashriyoti, 1871. - 714 b.
2. *Javoxir Ergashev. Oyna.uz* 01.12.2022, 18:34
3. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 16 avgustdagi 176 sonli qarori.
4. O’zbekiston Respublikasini Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 191-moddasi.
5. O’zbekiston Respublikasining “Reklama to’g’risida”gi qonunning 46-moddasi.
6. [https:// Kun.uz](https://Kun.uz) 2023.12.04
6. Xosilbekovna, S. F. (2024). THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 4(2), 134-137.
5. Сирожиддинова, Ф. Х. (2024). ХОТИН-ҚИЗЛАР МЕХНАТ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *SCHOLAR*, 2(5), 188-192.